



## XORIY TAJRIBASINI MAKTABGACHA TA'LIMGA TRONSFARMATSIYA QILISHDA MILLIY METODIK YONDASHUVLARNI RIVOJLANTIRISH

*Aliyeva I.O.*

*MTTDMQTMO instituti tayanch doktoranti (PhD)*

**Tayanch so'zlar:** transformatsiya, metodika, boshqaruv, kadrlar salohiyati, innovatsion ta'lim, uzluksizlik, hamkorlik, moslashtirish.

**Ключевые слова:** трансформация, методология, менеджмент, кадровый потенциал, инновационное образование, преемственность, сотрудничество, адаптация.

**Key words:** transformation, methodology, management, personnel capacity, innovative education, continuity, cooperation, adaptation.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti jamiyatda ijtimoiy institutning birinchi bosqichi bo'lganligi sababli, u insonning dastlabki identifikatsiyasi uchun muhimdir. Ma'lumki ta'lim xususiy taraqqiyot tendensiyasida rivojlanmaydi, ya'ni ta'lim ijtimoiy talab va ehtiyojlarga ko'ra doimiy va uzluksiz ravishda taraqqiy etishni talab etadi. Mazkur rivojlanish sharoitida maktabgacha ta'limga xorij tajribasini transformatsiya qilish ushbu uzluksizlikning bir bo'lagini tashkil etadi. Bunda xorij tajribasini maktabgacha ta'lim sohasiga transformatsiya qilishni O'zbekiston sharoitida quyidagi yo'nalishlarda olib borish muhim:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ta'limiy jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yida zamonaviy xorijiy metodikalarni transformatsiya qilish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritadigan kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini transformatsiya qilish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish bo'yicha xorij tajribasini transformatsiya qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ta'limiy jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yida zamonaviy xorijiy metodikalarni



transformatsiya qilish. Ushbu yo‘nalishlardagi xorij tajribasini maktabgacha ta‘lim tizimiga transformatsiya qilish jarayonining tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida olib boriladigan ta‘limiy jarayonlarga zamonaviy metodlarni tatbiq qilish ta‘lim samaradorligini ta‘minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyo tajribasida ta‘lim negizini maktabgacha ta‘limdan boshlash tendensiyasi eng samarali va ta‘limning keyingi bosqichlarini silliq va muammolarsiz o‘tkazish kafolati sifatida qaralmoqda. Ayniqsa jahon maktabgacha ta‘limida bola shaxsiga alohida e‘tibor qaratgan holda moslashuvchan ta‘lim an‘analarini amaliyotga singdirish o‘zini oqlamoqda. Shu sababdan har tmonlama rivojlangan, ijodkor, divergent va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bolalar avlodini maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridan shakllantirish maqsadimizdir.

Bugungi kun maktabgacha ta‘lim sohasi pedagoglari katta hajmdagi ma‘lumotlarga ega, texnika asri imkoniyatlaridan to‘liq foydalangan holda boshqa mamlakatdagi hamkasblarining tajriba va yutuqlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Biroq, ta‘limiy jarayonga innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida milliy maktabgacha ta‘lim tizimiga moslashtirilgan holda tatbiq etish muammosi mavjud. Shu o‘rinda innovatsion ta‘limga ta‘rif keltirish o‘rinli:

Innovatsion ta‘lim – bu turli xil o‘qitish vositalari, usullari va texnologiyalari asosida bolalarda maksimal bilim, maksimal ijodiy faollik va keng ko‘lamli amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bilan tavsiflangan ta‘lim effektiga erishishga imkon beradigan o‘quv jarayonini tashkil etish .

Boshqa bir adabiyotda "innovatsiya" so‘zi "yangilik", "innovatsiya" deb tarjima qilingan . Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar – bu ta‘lim tizimi uchun bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini va uning yakuniy natijasini – har tomonlama rivojlangan, iqtidorli shaxsni tarbiyalash imkonini beradigan yangi ta‘lim vositalaridir. Dunyo maktabgacha pedagogikasida innovatsion o‘qitishning dolzarbligi quyidagi aspektlarga bo‘linadi:

- bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi ta‘limiy muhit yaratish;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tamoyillariga amal qilish;
- ta‘limni insonparvarlashtirish konsepsiyasiga rioya etish;
- didaktik jarayonda xilma xillik va samarali metodikalarni amaliyotga tatbiq etish.



Dunyodagi maktabgacha ta'lim bo'yicha ilg'or tajribalarni kuzatganimizda innovatsion ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar ekaniga guvoh bo'ldik:

- o'quv jarayonini optimallashtirish;
- pedagog va bola o'rtasida hamkorlik muhitini yaratish;
- tarbiyalanuvchilarni ijodiy ta'lim faoliyatiga jalb qilish;
- intellektual, kommunikativ, lingvistik va ijodiy qobiliyatlar; fikrlashning har xil turlarini rivojlantirish; yuqori sifatli bilimlarni shakllantirish va o'quv va kognitiv faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan ko'nikmalarni rivojlantirish.

Zamonaviy dunyoda innovatsion ta'limning asosi muammoli va rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib, bunda pedagog guruhda har bir bolaga muvaffaqiyatga erishish uchun sharoit yaratadi. Ya'ni, zamonaviy maktabgacha ta'lim tarbiyachisi innovatsion metodlarni o'z tajribasida qo'llash jarayonida tarbiyalanuvchilarga nisbatan "bilimni o'zlashtirishi shart" degan pozitsiyadan "berilganma'lumotlarasosidakompetensiyahosilbo'lishizarur" degan maqsadni o'z oldiga qo'yishi zarur. Ya'ni bugungi dunyo maktabgachata'limining asosiy vazifasi bolalarni bilimlarni egallashga individual qiziqishini shakllantirish va keyinchalik o'rganganlarini kundalik hayotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritadigan kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini transformatsiya qilish. MTT pedagoglarining doimiy ravishda sohaviy yangiliklardan xabardor bo'lishi va shaxsiy rivojlanishi qadrlanadi. Biroq, davlat buyurtmasiga ko'ra hamda shaxsiy tashabbus bilan vaqti-vaqti bilan malaka oshirish hamda qayta tayyorlov kurslari, qo'shimcha sohaviy profillar bo'yicha o'quvlarga zaruriyat mavjud. Bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining andragogik ta'limiga xorij tajribasini transformatsiya qilish yondashuvi muhim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilarining kasbiy rivojlanish jarayonida andragogik yondashuvga muvofiq tashkil etiladigan o'quvlarni zamonaviy usulda tashkil etish, bunda innovatsion metodlar, vositalardan foydalanish samarasi isbotlangan .

XXI asrda YUNESKO kattalar ta'limining asosiy tamoyilini quyidagicha shakllantirgan: "Kattalar uchun ta'lim jarayoni qiziqarli (quvnoq) tarzda tashkil etilishi kerak" . Shunga ko'ra biz maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog kadrlarining uzluksiz ravishda rivojlanishida xorij tajribasidan foydalanishning quyidagi xususiyatlarini keltiramiz:



1. O‘quv materialiga amaliy yondashuv, faqat “bu yerda va hozir” ishlatilishi mumkin bo‘lgan narsalarni o‘rganish va tinglash istagini ro‘yobga chiqarish.

2. O‘quv materialining mazmuniga samarali va sinalgan tajribalarni singdirish bilan birga ilg‘or mamlakatlarning soha bo‘yicha eng so‘nggi yangiliklarini o‘quv dasturiga kiritish.

3. Yuqori sifat darajasiga ega bo‘lgan yangi materiallarni pedagoglar ixtiyotiga havola etishda amaliyotdagi muammo va to‘siqlarni ham hisobga olish.

4. Kasbiy rivojlanish bo‘yicha yetarli tajribaga ega bo‘lan mutaxassilar o‘rtasida tajriba almashish, mustaqil ta‘lim olish, munozarada qatnashish uchun ta‘lim muhitini tashkil etish va bunda transformatsion ta‘lim shakllarini moslashtirish.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va unda tarbiyalanayotgan bolalar soni ortayotgani shunga mutanosib ravishda malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni ham yuzaga keltirdi. Mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim sohasi mutaxassilarining pedagogik salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha amaliy ishlarning misoli sifatida maktabgacha ta‘lim tizimining oliy ma‘lumotli kadrlarga ehtiyojini hududlar bo‘yicha o‘rganish va tahlil natijalariga ko‘ra pedagogik yo‘nalishga ixtisoslashtirilgan oliy ta‘lim muassasalariga maqsadli qabul kvotalari bo‘yicha takliflar tayyorlanganini aytish mumkin.

Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarni tayyorlashda uch yillik ta‘lim tizimiga o‘tishda Xorijiy mamlakatlar, Janubiy Koreyaning Chungang, Dokson, Ixva, Koreya Milliy universiteti va Koreya pedagogika universitetlari “Maktabgacha ta‘lim” yo‘nalishlari o‘quv rejalari va u yerdagi pedagogik jarayonni tashkil etilishini o‘rganib, tahlil qilindi va tahlillar asosida, maktabgacha ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi kadrlar tayyorlash o‘qish muddati 3 yil bo‘lgan o‘quv rejasi ma‘qullandi.

Ushbu tashkiliy ishlarning o‘quv-uslubiy jihatdan zamonaviy talablarga javob berishi uchun universitet va institutlarda, malaka oshirish tizimida pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanmoqda. Bu bosqichda albatta, zamonaviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalari o‘rganilib ta‘lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuv, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish esa soha pedagoglaridan puxta tayyorgarlik, mahorat va bilim talab etayotgani jarayonda ma‘lum bo‘ldi. Shu sababli maktabgacha ta‘lim mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma‘lumotli kadrlar salmog‘ini va sifatini oshirish masalasi oliy ta‘lim tizimi oldiga alohida vazifalarni qo‘ydi.

Shuningdek, mamlakatimiz ta‘lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning normativ-huquqiy bazasi



yangilandi, moddiy-texnik infrastrukturasi yaratildi. Oliy ta'lim muassasalarini strategik rivojlantirishning "yo'l xarita"lari ishlab chiqildi, xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma fakultetlar, universitet filiallari tashkil etildi va etilmoqda. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bo'lajak kadrlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, ularning kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim sohasida kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashda ishtirok etish uchun ish beruvchilarni jalb qilish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan maktabgacha ta'lim mutaxassislarni tayyorlash masalasi ham dolzarbdir.

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar natijasida bugungi kunda chekka hududlardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham nomutaxassis kadr emas, balki o'z ishini puxta biladigan zamonaviy va yosh xodim ish olib borayapti. Ushbu yosh mutaxassislarni didaktik ta'minot bilan ta'minlash ishiga esa deyarli barcha: oliy ta'limdan tortib malaka oshirish instituti va markazlarigacha jalb etilgan. Ayniqsa yangi o'qitish uslublari va metodikalarni yaratishda xorij tajribasiga tayangan holda milliy lashtirilgan o'quv dasturlarining ta'lim jarayoniga tatbiq etilgani bugungi kundagi tarbiyalanuvchilarni erkin fikrli, mustaqil qaror qabul qiladigan shaxs bo'lib ulg'ayishida ahamiyati katta.

Maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish bo'yicha xorij tajribasini transformatsiya qilish. MTT rahbari vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, yetakchilik qobiliyati shakllangan, g'oyaviy va mafkuraviy jihatdan hushyor, tadbirkorlik xislatiga ega, bilim va ma'naviyat jihatdan pedagogik jamoaga o'rnak bo'la oladigan shaxs bo'lishi lozim. Ushbu menejerlik sifatlarini xorijiy tajribani transformatsiya qilish orqali shakllantirish esa rahbar kadrlarda boshqaruv sifatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Bugun MTT rahbari keng imkoniyatlar rivojlanayotgan bir davrda faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa uning boshqaruv sohasida mavjud ichki imkoniyatlardan samarali foydalangan holda barcha vaziyatlarni oqilona hal etish mahoratini ham sinovdan o'tkazadi. Tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasi uchun bevosita masul bo'lgan pedagoglar faoliyatini tizimli nazorat qilish va muvofiq lashtirish hamda zarurat tug'ilganda metodik maslahatlar bera olish uchun esa rahbardan pedagogik-psixologik bilim talab etiladi. U shunday pedagog blosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabo'lishi lozimki, xodimlarning shaxsiy mas'uliyatini oshirishi zarur.

Ikkinchidan, davr talabi maktabgacha ta'lim sohasida rahbarga boshqaruvchi nuqtayi nazari bilan qarashga da'vat etadi. Chunki maktabgacha ta'lim sohasi



global institut darajasiga ko‘tarilib, bu tizimda xalqaro aloqalar rivojlanmoqda. Bunday vazifalarni bajarishda faqat pedagog bo‘lish kamlik qiladi. MTTni boshqarishda iqtisodiy jihatdan tajriba va malaka kerak. Hozirgi davrda bosh vazifa – bu har jihatdan mukammal fikrlay oladigan, yaxshi boshqaruvchi, ta‘lim sohasida yetarli bilimlarga ega bo‘lgan rahbarlarni shakllantirishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xorij tajribasini maktabgacha ta‘limga transformatsiya qilishda milliy metodik yondashuvlarni rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib, maktabgacha ta‘lim tizimini isloh qilish har qanday mamlakat va butun jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishining zaruriy shartidir. Maktabgacha ta‘limdagi muammolarni hal etishda jahon tajribasini o‘rganish va samarali tajribalarni jarayonga joriy etish alohida transformatsion yondashuvlarni ko‘zda tutadi.

#### Adabiyotlar:

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015.
2. Анализ изменений в сфере дошкольного образования / И. В. Абанкина, Н. В. Родина, Л. М. Филатова; Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», Институт образования. - М.: НИУ ВШЭ, 2017. — 78 с.
3. Djamilova N.N. “Maktabgacha ta‘limda metodika fanlarini o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. T.: 2018
4. Возгова З.В. Деятельностный подход к моделированию региональной системы непрерывного повышения квалификации научно-педагогических работников: Дисс... док. пед. наук. – Москва, 2014. – 388 с.
5. Kattalar ta‘limi va o‘qishi global dasturi (Curriculum globALE o‘quv dasturi, Maja Avramovska, Tania Czerwinski, Susanne Lattke 2015, DVV International, DIE
6. Набихонова Ш.Б. Развитие профессиональной компетентности воспитателей дошкольных образовательных организаций. Т.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa konsern. T.:2021-116 b.

#### РЕЗЮМЕ

O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar shu soha rivojini ta‘minlayotgani erishilayotgan natijalarda ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, maktabgacha ta‘lim mazmunini yangilash, metodik jihatdan yondashuvlarni zamon talablariga moslashtirish ishlari ta‘lim sifatini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada ushbu masalalar tahlil qilingan.

#### РЕЗЮМЕ

По достигнутым результатам видно, что проводимые реформы по развитию системы дошкольного образования в Узбекистане обеспечивают развитие этой сферы. В частности, особое значение в повышении качества образования имеет работа по обновлению содержания дошкольного образования, методической адаптации подходов к требованиям времени. В данной статье анализируются эти вопросы.

#### SUMMARY

In Uzbekistan, the level of education is high and it is being developed in this field. high-quality preschool education content with the help of new methods, modern preschool education tools, and the established procedure for controlling the quality of education. This article analyzes these issues.